



ГРАФИК ПЛАТЕЖЕЙ*
к договору (контракту) от 13.01.2022 г. № JSh/55

между ИИБ хузуридаги куриклаш бошкармаси и Олот АБМК бошкармаси на общую сумму
1 396 280 610,00

Глава _____ 170
Казначейский лицевой счёт _____ 100010860062047042402170002

(в сумах)

Наименование месяцев 2022 г.	Виды расходов** (соответствующий код бюджетной классификации)			Всего
	4293000			
Январь	465 426 870			465 426 870
Февраль	465 426 870			465 426 870
Март	465 426 870			465 426 870
Апрель				
Май				
Июнь				
Июль				
Август				
Сентябрь				
Октябрь				
Ноябрь				
Декабрь				
Всего за год	1 396 280 610			1 396 280 610

Всего 1 396 280 610,00 сум

Одна миллиарда триста девяносто шесть миллиона двести
восемьдесят тысяча шестьсот десять сум 00 тийин
сумма прописью

Из вышеуказанной суммы _____ сум или _____ %*** от общей суммы договора
подлежат предоплате в _____ месяце 2022 года.

(*) — Бюджетные организации, получатели бюджетных средств и получатели средств ДЦФ, предоставляют в казначейские органы в 2 -х экземплярах;

(**) — Указывается раздел, глава, параграф и статья расхода;

(***) — Месячный _____ 100 _____ % , от указанной выше суммы который необходимо оплатить до _____ 30 _____ числа текущего месяца.
(Данное поле заполняется со стороны бюджетных организаций, получателей бюджетных средств и получателей средств ДЦФ в случае осуществления предоплаты в соответствии с порядком, установленным законодательством по договорам за оказание коммунальных услуг, услуг связи и предоставления в регулярном порядке товара (работ, услуг) указанных в правовых документах.)



Руководитель заказчика

(подпись)

Ш.Б.Дурматов

Ф.И.О.

Главный бухгалтер заказчика

(подпись)

Э.Й.Эрназаров

Ф.И.О.

Принял работник казначейского
подразделения

(подпись)

Получил работник
заказчика

(подпись)

« _____ » _____ 2022 г.

« _____ » _____ 2022 г.

O b y e k t n i q o' r i q l a s h **S h A R T N O M A S I**

Buxoro sh.

JSh 55 -son

13» yanvar 2022 yil.

O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi Buxoro viloyati Qo'riqlash boshqarmasi nomidan O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasining buyrug'i asosida faoliyat yurituvchi, boshqarma boshlig'i **Sh.A.Jumayev** (keyingi o'rinlarda «**Ijrochi**» deb yuritiladi) bir tomondan, Olot tumani Amu-Buxoro mashina kanali boshqarmasi nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi Olot tumani Amu-Buxoro mashina kanali boshqarmasi boshlig'i **Sh.B.Durmatov** (keyingi o'rinlarda «**Buyurtmachi**» deb yuritiladi) ikkinchi tomondan, birgalikda «**Tomonlar**» deb yuritiladi, mazkur Shartnomani O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 1 iyul kunidagi, 2018 yil Qarori va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 3 iyuldagi 555-sonli Qarorlari talablari ijrosi yuzasidan, quyidagilar haqida tuzdilar:

1-bob. ShARTNOMA PREDMETI.

1. Ijrochi Milliy gvardiya qo'riqlash xizmatining saf bo'linmasi posti va TQP orqali, mulkni qo'riqlash, kirib chiqishni nazoratga olish xizmatini ko'rsatish majburiyatini, **Buyurtmachi** esa mazkur Shartnoma shartlariga asosan o'z vaqtida ko'rsatilgan xizmat uchun to'lovlarni amalga oshirish majburiyatini oladi.

2-bob. UMUMIY ShARTLAR.

2. Buyurtmachi. Olot tumani Amu-Buxoro mashina kanali boshqarmasi qarashli «Amu-Buxoro-I» va «Amu-Buxoro-II» suv nasos stansiyalarini hamda ABMKning ayrim xonalarini qo'riqlash uchun qo'riqlashga topshiradi, **Ijrochi** esa obyektlarni quyidagi tartibda:

- Olot tumani Qirlishon q.f.y. xududida joylashgan «Amu-Buxoro-I» suv nasos stansiyasining darvozasini Qo'riqlash boshqarmasi Olot tuman qo'riqlash bo'limi tomonidan 1 ta 24 soatlik (toifa bilan) saf bo'linmasi posti orqali;

- Olot tumani Qirlishon q.f.y. xududida joylashgan «Amu-Buxoro-I» suv nasos stansiyasi suv quvurlarining ustki qismini Qo'riqlash boshqarmasi Olot tuman qo'riqlash bo'limi tomonidan 1 ta 24 soatlik (toifa bilan) saf bo'linmasi posti orqali;

- Olot tumani Qirlishon q.f.y. xududida joylashgan «Amu-Buxoro-I» suv nasos stansiyasi suv quyish joyi va qo'shimcha darvozasini Qo'riqlash boshqarmasi Olot tuman qo'riqlash bo'limi tomonidan 1 ta 24 soatlik (toifa bilan) saf bo'linmasi posti orqali;

- Olot tumani Qirlishon q.f.y. xududida joylashgan «Amu-Buxoro-I» suv nasos stansiyasining ma'muriy binosi va mashina zalini Qo'riqlash boshqarmasi Olot tuman qo'riqlash bo'limi tomonidan 1 ta 12 soatlik (soat 20:00 dan 08:00 gacha, toifa bilan) saf bo'linmasi posti orqali;

- Olot tumani Qirlishon q.f.y. xududida joylashgan «Amu-Buxoro-II» suv nasos stansiyasining darvozasini Qo'riqlash boshqarmasi 7-Aloxida otryadi tomonidan 1 ta 24 soatlik (toifa bilan) saf bo'linmasi posti orqali;

- Olot tumani Qirlishon q.f.y. xududida joylashgan «Amu-Buxoro-II» suv nasos stansiyasi suv quvurlarining ustki qismini Qo'riqlash boshqarmasi Olot tuman qo'riqlash bo'limi tomonidan 1 ta 24 soatlik (toifa bilan) saf bo'linmasi posti orqali;

- Olot tumani Qirlishon q.f.y. xududida joylashgan «Amu-Buxoro-II» suv nasos stansiyasi suv quyish joyi va qo'shimcha darvozasini Qo'riqlash boshqarmasi Olot tuman qo'riqlash bo'limi tomonidan 1 ta 24 soatlik (toifa bilan) saf bo'linmasi posti orqali;

- Olot tumani Qirlishon q.f.y. xududida joylashgan «Amu-Buxoro-II» suv nasos stansiyasining ma'muriy binosi va mashina zalini Qo'riqlash boshqarmasi Olot tuman qo'riqlash bo'limi tomonidan 1 ta 12 soatlik (soat 20:00 dan 08:00 gacha, toifa bilan) saf bo'linmasi posti orqali;

- Olot tuman ABMB boshqarmasi xazinaxonasini Qo'riqlash boshqarmasi Olot tuman qo'riqlash bo'limi tomonidan ish kunlari, dam olishdan oldingi kunlar 8 soatdan tashvish tugmasi orqali hamda ish kunlari va ish kunlaridan oldingi kunlar 16 soatdan hamda dam olish kunlari 24 soatdan TQM orqali, qorovulxona №1,2 larni har birin har kuni 12 soatdan tashvish tugmasi orqali qo'riqlashga qabul qiladi.

3. Obyektning qo'riqlash chegaralari (imoratlari, qurilmalari), postlarining (yo'nalishlari) joylashuvi chizma-rejada ko'rsatiladi va mazkur Shartnomaga ilova qilinadi hamda uning ajralmas qismi hisoblanadi.

4. Obyektdagi kirish-chiqish, ichki obyekt rejimi Buyurtmachi tomonidan tasdiqlanadigan kirish-chiqish va ichki obyekt rejimini tashkil etish yo'riqnomasiga muvofiq amalga oshiriladi hamda mazkur Shartnomaga ilova qilinib uning ajralmas qismi hisoblanadi.

5. Obyektni texnik qo'riqlash vositalari bilan jihozlash va ta'mirlash Buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladi, texnik qo'riqlash vositalari Ijrochining aybi bilan ishdan chiqqan hollar bundan mustasno. Obyektni yong'indan qo'riqlash va xavf-xatar signalizatsiyasi bilan jihozlash chizmasi mazkur Shartnomaga ilova qilinadi hamda uning ajralmas qismi hisoblanadi.

3-bob. TO'LOVLARNI AMALGA OSHIRISH.

6. Mazkur Shartnoma asosida ko'rsatiladigan xizmatlar narxi belgilangan tariflarga mos holda quyidagicha hisoblanadi:

-post-soat hisobida qo'riqlash xizmati bir oyiga 461 277 366 (to'rt yuz oltmish bir million ikki yuz yetmish yetti ming uch yuz oltinchi olti) so'mni tashkil qiladi.

-QYoST vositalariga texnik xizmat ko'rsatish xizmati bir oyiga 4 149 504 (to'rt million bir yuz qirq to'qqiz ming besh yuz to'rt) so'mni tashkil qiladi.

7. Ijrochi xizmatlari uchun to'lovlarga o'zgartirishlar kiritish. O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo'mondoni tomonidan, qonun hujjatlariga muvofiq ushbu xizmatlar uchun yangi tariflar tasdiqlanganda, hisob-smetalar mazkur tarif asosida qaytadan tuziladi.

8. "Buyurtmachi" qo'riqlash xizmati uchun oylik to'lovni, navbatdagi oy boshlanishidan 10 kun oldin (ya'ni har oyning 20 sanasida), shartnomaning umumiy summasining 100% miqdoridagi pulni «Ijrochi»ning hisob raqamiga o'tkazib beradi.

9. Qo'riqlash xizmatlari uchun pul to'lashga «Buyurtmachi»ning mablag'i bo'lmagan holda, yuqori tashkilotlarning markazlashgan fondlari hisobidan qarzдорlik bartaraf etiladi.

10. **Buyurtmachi** mazkur Shartnomaning 6-bandida ko'rsatilgan oylik to'lovni o'z vaqtida to'lamasa, Ijrochi Buyurtmachiga akseptsiz to'lov talabnomasini taqdim qilishga haqlidir.

11. Mazkur Shartnoma bekor qilinganda hamda har oyning yakuni bilan, **Ijrochi Buyurtmachi** bilan to'langan to'lovlar bo'yicha, qayta hisob-kitobni amalga oshirishi zarur (ya'ni taqqoslash dalolatnomasi tuzilishi).

4-bob. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI.

12. Buyurtmachi quyidagi huquqlarga ega:

Ijrochidan belgilangan qo'riqlash tartibiga rioya etilishini talab qilish;

xizmat ko'rsatish jarayonida Ijrochining xodimlari tomonidan intizomni buzish holatlarini to'xtatish va yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf qilish bo'yicha kerakli choralar ko'rilishini Ijrochidan talab qilish;

Ijrochining xizmatni tashkil qilishi va amalga oshirishini, qo'riqlash turlariga mos bo'lgan kiyim-bosh, kiyim-bosh anjomlari (ekipirovkasi), qurol-aslahalarining mavjudligini nazorat qilish;

Ijrochi tomonidan mazkur Shartnoma shartlari buzilishining har bir holati bo'yicha Ijrochining vakili ishtirokida 2 (ikki) nusxada dalolatnoma tuzish;

Ijrochining aybi bilan yo'l qo'yilgan kamchiliklar aniqlangan taqdirda Ijrochidan ularni bartaraf etishni talab qilish;

Ijrochi tomonidan mazkur Shartnoma talablari bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmaganligi natijasida yetkazilgan zararni undirish. Zararni qaytarish uchun, tergov yoki sud idoralarining ushbu holatlar yuzasidan chiqarilgan qarorlari asos bo'ladi.

13. Buyurtmachining majburiyatlari:

Shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan ko'zdan kechirish dalolatnomasiga asosan qo'riqlashga topshiriladigan obyektini, alohida xonalarni texnik mustahkamlash bo'yicha tadbirlarni bajarish, o'z hisobidan texnik qo'riqlash vositalari (obyektning turiga qarab post qurilmalari va uni isitish uskunolari, postlararo aloqa, ichki va shahar telefonlari, yong'indan qo'riqlash signalizatsiyasi, obyekt perimetri bo'ylab kerakli yoritish vositalari, qulflar, turniket, kuzatish maydonchasi, shaxsiy tekshirish xonalari, ishchi va xizmatchilarning shaxsiy buyumlarini saqlash xonalari, yong'in o'chiruvchi vositalar va boshqalar) bilan jihozlash va zarur hollarda ularni ta'mirlash;

har qanday moddiy qimmatliklarni obyekt hududining devor to'sig'idan 15 metr uzoqlikda (obyekt joylashuvini hisobga olgan holda) joylashtirish;

Ijrochi bilan birgalikda har chorakda kamida bir marta obyektning texnik mustahkamligini, qo'riqlashning texnik vositalari bilan ta'minlanganligini, shu jumladan yong'indan qo'riqlash signalizatsiyasi holatini tekshirish ko'rigini o'tkazish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish muddatlari, Ijrochini bu haqda xabardor qilish muddati va tartibini ko'rsatgan holda Tomonlarning vakillari ishtirokida dalolatnoma tuzish;

belgilangan qo'riqlash rejimi talablarini bajarish va texnik qo'riqlash vositalarining tegishli holatini ta'minlash;

binoda rejalashtirilayotgan kapital ta'mirlash ishlari, obyektlarni qayta jihozlash, ish rejimini va ishlar profilini o'zgartirish, moddiy qimmatliklarni saqlash joyini o'zgartirish yoki yangilarini ochildish, obyekt yoki uning bir qismini boshqa shaxslarga ijaraga berish yoki mulk huquqini o'tkazish, qo'riqlash turini, postlar dislokatsiyasini o'zgartirish yoki qo'shimcha qo'riqlash signalizatsiyasi vositalarini o'rnatish bo'yicha tadbirlarning o'tkazilishi haqida Ijrochini bunday ishlarning boshlanishidan kamida 30 kun oldin ogohlantirish;

obyektni, yong'indan qo'riqlash signalizatsiyasi bilan jihozlangan har bir alohida xonani kundalik qo'riqlashga topshirish, eshiklar qulfi, derazalar, darchalar, lyuklar, ventilyatsiya teshiklari yopilganligini hamda avtonom qo'riqlash signalizatsiyasini va hududning yoritilishi holatini tekshirish, qo'riqlanadigan

binolarda elektr jihozlarning, boshqa yong'in manbalarini yoqilgan holda qolib ketishining oldini olish va begona shaxslarning obyektga qolishiga yo'l qo'ymaslik;

qo'riqlanayotgan hududda binodan tashqarida joylashgan moddiy qimmatliklarning miqdori, assortimenti, o'ralgan yoki qadoqlangan holatda qayta hisob-kitob asosida qabul qilish-topshirish jurnalida ro'yxatdan o'tkazgan holda hamda Ijrochi va Buyurtmachi vakillari tomonidan imzolangan holda qo'riqlashga topshirish;

maxsus jurnalda o'z vakili tomonidan imzo qo'yish yo'li bilan obyektlarni, alohida xonalarni qo'riqlashga topshirish, qo'riqlash tugagandan so'ng qo'riqlashdan chiqarish;

qo'riqlanadigan xonalarning butunligi buzilganligi haqida yoki obyektga begona shaxslarning kirishi natijasida zarar yetkazilganligi alomatlari mavjud bo'lganda zudlik bilan Ijrochini xabardor qilish va obyektga Ijrochi vakili yetib kelguniga qadar ko'rsatilgan joylarning daxlsizligini ta'minlab tezkor xizmatlarga xabar berish;

begona shaxslarga qo'riqlash va signalizatsiya tamoyillari va tizimini oshkor qilmaslik;

Ijrochi vakillarini obyektidagi ichki tartib va texnika xavfsizligi qoidalarini bilan ularning o'z vazifalarini bajarishga oid qismi bilan tanishtirish.

14. Ijrochining huquqlari:

Buyurtmachidan obyektga o'rnatilgan kirish-chiqish va ichki obyekt rejimiga rioya qilinishini talab qilish;

Mazkur shartnomani tuzish, bajarish o'zgartirish va bekor qilish munosabati bilan zarur bo'lgan ma'lumotnomalar va boshqa hujjatlarni so'rash va olish;

ko'zdan kechirish dalolatnomasida ko'rsatilgan qo'riqlash-texnika vositalarini joriy qilish bo'yicha Buyurtmachiga tavsiyalar berish.

15. Ijrochining majburiyatlari:

obyektga postlar dislokatsiyasiga muvofiq qo'riqlash naryadini joriy etish;

mazkur Shartnomada va uning ilovalariga muvofiq obyektning hamda qo'riqlashga topshirilgan moddiy qimmatliklarni qo'riqlashni tashkil etish va ta'minlash;

qo'riqlanayotgan hududdagi lekin binodan tashqarida joylashgan moddiy qimmatliklarning miqdori, assortimenti, o'ralgan yoki qadoqlangan holatini tekshirib, qayta hisob-kitob asosida qabul qilish-topshirish jurnalida ro'yxatdan o'tkazgan holda Ijrochi va Buyurtmachi vakillari tomonidan imzolangan holda qabul qilib olish;

obyektga kirib-chiqish va ichki obyekt rejimiga rioya etish, obyekt hududiga belgilangan tartibda moddiy qimmatliklar olib kirilishi va chiqilishini nazorat qilish;

ruxsatnoma rejimi mavjud bo'lgan obyektlarda kun davomida nazoratdan o'tkazish punktidan bir marta kirish ruxsatnomasi bilan obyektga kiritilgan tashrif buyuruvchilarning chiqib ketishini ta'minlash;

obyektning qo'riqlash vaqtida joydagi yong'in xavfsizligi qoidalarining bajarilishini ta'minlash;

obyektga yong'in chiqishi yoki yong'indan qo'riqlash signalizatsiyasining ishlab ketishi holatida zudlik bilan yong'in xavfsizligi xizmatiga yoki Buyurtmachiga xabar berish;

obyektga begona shaxslarning kirib ketganligi aniqlanganda zudlik bilan Buyurtmachining vakilini chaqirish va obyektning daxlsizligini ta'minlash;

yong'indan qo'riqlash signalizatsiyasi ishlab ketgan holatlarda signalizatsiyaning ishlab ketish sabablarini aniqlash va obyektning qayta topshirish uchun Buyurtmachi vakilini chaqirtirish, tekshirish natijalari va obyektning qayta topshirish bo'yicha 2 (ikki) nusxada dalolatnoma tuzish;

Xizmatni tashkil qilish va amalga oshirish, qo'riqlash turlariga mos bo'lgan xodimlarni kiyim-bosh, kiyim-bosh anjomlari (ekipirovkasi), qurol-aslahalarining mavjudligini ta'minlash;

obyektning qo'riqlashga qabul qilganda va topshirganda obyektidagi texnik mustahkamlik bo'yicha va qo'riqlashning texnik vositalari bilan bog'liq aniqlangan barcha kamchiliklar haqida Buyurtmachini xabardor qilish;

Buyurtmachi bilan birgalikda har chorakda kamida 1 (bir) marta obyektning texnik jihatdan mustahkamligini, qo'riqlashning texnik vositalari bilan ta'minlanishini, jumladan yong'indan qo'riqlash signalizatsiyasini tekshirish ko'rigini o'tkazish, Buyurtmachi tomonidan aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish muddatlari hamda Ijrochini bu haqda xabardor qilish muddati va tartibini ko'rsatgan holda tomonlarning vakillari ishtirokida 2 (ikki) nusxada dalolatnoma tuzish;

Mazkur Shartnoma talablarining har bir buzilishi bo'yicha Ijrochi va Buyurtmachining vakillari ishtirokida 2 (ikki) nusxada dalolatnoma tuzish va 1 (bir) nusxadan tomonlarga tegishli choralar ko'rish uchun berish;

qo'riqlanayotgan xonalar buzilganligi yoki mulkka yetkazilgan zarar to'g'risida Milliy gvardiya qo'riqlash xizmati navbatchilik qismiga va Buyurtmachiga zudlik bilan xabar berish, Milliy gvardiya qo'riqlash xizmati vakili yetib kelgunga qadar hodisa yuz bergan joyning daxlsizligini ta'minlash.

5-bob. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI.

16. Mazkur Shartnomaning 8-bandida ko'rsatilgan summaning Buyurtmachi tomonidan o'z vaqtida xizmatlar haqini to'lamaganligi uchun Buyurtmachi Ijrochiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

17. Ijrochining xodimi postda asossiz ravishda bo'lmaganida Ijrochi Buyurtmachiga har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorda penya to'laydi, biroq bunda ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizdan oshib ketmasligi lozim.

18. Penyani to'lash Buyurtmachi va Ijrochini o'z majburiyatlarini buzish oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

19. Ijrochi mazkur Shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganligi natijasida Buyurtmachiga yetkazilgan zarar uchun moddiy javobgar bo'ladi.

Ijrochining aybi bilan zarar yetkazilganligi aniqlangan hollarda zararining to'liq miqdori yoki tomonlar o'rtasida kelishilgan miqdori to'lanadi.

Zarar miqdori tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilib tasdiqlanishi shart. Zarar miqdori yuzasidan nizo mavjud bo'lganda tomonlar kelishuviga asosan ekspertlarni jalb qilish yo'li bilan aniqlanishi mumkin. Zararni qaytarish uchun, tergov yoki sud idoralarining ushbu holatlar yuzasidan chiqarilgan qarorlari asos bo'ladi.

20. Ijrochining aybi bilan zarar yetkazilganligi tomonlar vakillaridan iborat komissiya tomonidan o'tkazilgan xizmat tekshiruvi xulosasi yoki kelishmovchilik mavjud bo'lgan hollarda sudning qarori bilan aniqlanishi shart.

21. Quyidagi hollarda Ijrochi zararni qoplamaydi:

Ijrochi shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni to'liq bajargan bo'lishiga qaramasdan zarar uchinchi shaxslarning jinoiy harakatlari natijasida yetkazilgan bo'lsa va bu sudning qonuniy kuchga kirgan qarori bilan tasdiqlansa:

zarar oxirgi zarurat yoki zaruriy mudofaa oqibatida yetkazilgan taqdirda;

zarar tabiiy ofat natijasida yetkazilgan bo'lsa;

buyurtmachining xodimlari tomonidan yoki ularning aybi bilan zarar yetkazilganda.

Jinoyatchi tomonidan qo'riqlanayotgan xona ichida keltirilgan zarar uchun, agarda bunda jinoyatchi ushbu xonaga uni yopilishidan oldin kirgan bo'lsa va xonani qo'riqlanmaydigan vaqtda tark etgan bo'lsa;

tovar-moddiy boyliklar o'g'rilik va bosqinchilik yo'li bilan o'g'rilangan hollarda; bunda qo'riqlanayotgan obyektlarning texnik jihozlanganligi bilan bog'liq kamchiliklarni Xo'jalik organi tomonidan ikki tomonlama tuzilgan ko'zdan kechirish dalolatnoma bilan belgilangan muddatlarda bartaraf qilinishi yuzasidan majburiyatlar bajarilmaganida, han'da ushbu sabablar o'g'rilik sodir etilishiga olib kelganda;

22. Mazkur Shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni lozim darajada bajarmaganlik uchun belgilangan neustoyka (jarima, penya) to'lash hamda zararni qoplash Tomonlarni Shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarini bajarishdan ozod etmaydi.

6-bob. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI.

23. Mazkur Shartnomani tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilish vaqtida taraflar o'rtasida kelib chiqadigan nizolar, shuningdek yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hududiy Iqtisodiy sudlarda hal etiladi.

7-bob. FORS-MAJOR.

24. Tomonlar ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmaganligi uchun, agar ushbu bajarmaslik Shartnoma tuzilgandan keyin paydo bo'lgan, yengib bo'lmaydigan kuch, ya'ni favqulodda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar (fors-major) oqibati hisoblansa, javobgarlikdan ozod qilinadi.

25. Yengib bo'lmaydigan kuch holatiga havola qiluvchi Tomon boshqa Tomonni bunday holatlar boshlanganligi va tamom bo'lganligi to'g'risida 2 (ikki) kun ichida yozma shaklda xabardor qilishi shart. Ushbu muddat ichida xabar bermagan Tomon mazkur Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganligi uchun javobgarlikdan ozod qilish asosi sifatida ko'rsatishga haqli emas.

Fors-major holatlariga suv toshqinlari, yer qimirlashi va boshqa tabiiy halokatlar, shuningdek epidemiyalar, yong'inlar, portlashlar, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mazkur Shartnoma ijrosiga bevosita ta'sir ko'rsatgan qarorlari kiradi.

26. Mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaz kuch holatlari amal qilgan davrga mutanosib ravishda kechiktiriladi. Agarda fors-major 3 (uch) oy davom etsa Tomonlar mazkur Shartnomani bir tomonlama bekor qilishga haqli.

8-bob. YaKUNIY QOIDALAR.

27. Mazkur Shartnoma imzolangandan so'ng 2022 yilning 01 yanvar kunidan boshlab kuchga kiradi.

28. Mazkur Shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar yozma shaklda tuzilganda hamda Buyurtmachi va Ijrochining vakillari tomonidan imzolangan taqdirda haqiqiydir.

29. Shartnomaning amal qilish muddati quyidagicha belgilanadi:

- ho'jalik yurituvchi sub'ektlar bo'yicha — Tomonlar tarafidan imzolangan kundan boshlab 2022 yilning 31 dekabr kuniga qadar.

30. **Buyurtmachi** mazkur shartnomani yangilash to'g'risida, **Ijrochiga** Shartnoma muddati tugashidan 30 kun oldin ma'lum qilmasa, mazkur Shartnomaning amal qilish muddati xuddi shu muddatga va xuddi shu shartlarda **uzaytirilgan hisoblanadi**.

31. Toifalangan obyektlarning postlariga o'zgartirish kiritish, qo'riqlash turini o'zgartirish, mazkur obyektlarning qo'riqlash shartnomalarini bekor qilish faqatgina O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 01 iyul kunidagi «O'ta muhim va toifalangan obyektlar va maxsus tashiladigan yuklarni qo'riqlanishini tashkil etish to'g'risida»gi Qaroriga muvofiq amalga oshiriladi.

32. Obyektning xususiyatidan kelib chiqib Tomonlar mazkur Shartnomaga qonun hujjatlariga muvofiq huquq va majburiyatlarini nazarda tutuvchi qo'shimcha bandlar kiritishlari mumkin.

9-bob. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI.

«I J R O Ch I»

O'zbekiston Respublikasi Milliy
Gvardiyasi Buxoro viloyati Qo'riqlash
boshqarmasi.

Manzili: Buxoro shahri M.Iqbol ko'chasi
10-uy
x.r. 21596000203976980001
MFO: 00017 **INN:** 202623032
Bank nomi: Markaziy bank Buxoro
viloyati boshqarmasi.



Boshqarma boshlig'i

Sh.A.Jumayev

Xiz. tel: 221-30-10; 221-30-11

Boshqarma MIB boshlig'i

N.I.Sa'dullayev

Boshqarma YuG bosh yuriskonsulti

M.U.Suvonov

Olot tuman qo'riqlash bo'limi boshlig'i

B.F.Tog'ayev

«B U Y U R T M A Ch I»

Olot tumani Amu-Buxoro mashina kanali
boshqarmasi

Manzil: Alot tum. Amu-Buxoro - 172
PKU: 23 402.000200100001010.
x/r: 100010880067047042402170002
MFO: 00014 **INN:** 201365616
Bank nomi: Tovikent
Manjer Markaziy Bank

Olot tumani Amu-Buxoro mashina kanali
boshqarmasi boshlig'i



Sh.B.Durmatov.

Bosh hisobchi

Huquqshunos:

R.V. Raizuev

Yuridik shaxs to'g'risida ma'lumot
(Ro'yxatdan o'tkazuvchi va vakolatli organlar ma'lumoti asosida shakllantirildi)

Umumiy ma'lumot

INN:	202623032
Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ:	Tuman (shahar) hokimiyati
Davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sana:	30.07.1959
Davlat ro'yxatidan o'tkazilgan raqami:	241
Yuridik shaxsning nomi:	O'zbekiston Respublikasi milliy gvardiyasi Buxoro viloyat qo'riqlash boshqarmasi
Tashkiliy-huquqiy shakli:	270 - Muassasa
IFUT kodi:	84220 - Mudofaa faoliyati
DBIBT kodi:	08354 - O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
Kichik tadbirkorlik sub'ektlariga mansubligi:	Yoq
Faollik holati:	faoliyat ko'rsatayotgan
Ustav fondi:	0,00 USD
Boshqaruvchi haqida ma'lumot	
Rahbarning F.I.SH.:	JUMAYEV SHERZOD ABDULLAYEVICH
Rahbarning STIR:	487372028

Ta'asischilar va ularning ustav fondidagi ulushi haqida ma'lumotlar

1.	
2.	
3.	
4.	
5.	

Kontakt ma'lumotlari

Elektron pochta manzili:	
Aloqa telefoni:	652212980
MHOBT kodi:	1706401 - Buxoro viloyati, Buxoro sh.
Ko'cha, uy, xonadon:	M.Iqbol ko'chasi, 10-uy

24/09/2021 uchun amal axborot



ҲУҚУҚИЙ ХУЛОСА

Мен Файзиев Раҳмон Рўзиевич Олот тумани Аму-Бухоро Машина Канали бошқармаси бошлиғи Ш.Б.Дурматов ҳамда Ўзбекистон Республикаси Миллий Гвардияси Бухоро вилоят Қўриқлаш бошқармаси бошлиғи Ш.А.Жумаев ўртасида 2022 йил 13 январ куни 1 396 280 610 (Бир миллиард уч юз тўқсон олти миллион икки юз саксон минг олти юз ўн) сўмга тузилган №JSh/55-сонли шартноманинг тузилишининг Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатларига тугри келишини текширдим.

Текшириш натижаси куйидагича:

1. Ушбу шартнома «Ўзбекистон Республикаси хўжалик юритувчи субъектларининг шартномавий ҳуқуқий базаси тугрисида» ги қонуннинг 10-16 моддаларига мос келади.

2. Шартноманинг шартлари Ўзбекистон Республикаси қонунларига мос келади.

3. Томонларнинг жавобгарлиги ва низоларни ҳал қилиш тартиби қонун ҳужжатларига мос равишда кўрсатиб ўтилган.

Хулоса: ушбу текширилган шартнома «Ўзбекистон Республикаси хўжалик юритувчи субъектларининг шартномавий ҳуқуқий базаси тугрисида» ги қонуннинг 21-моддасига асосан ҳуқуқий экспертизадан ўтказилди.

Олот АБМК бошқармаси
Ҳуқуқшуноси:



Р.Р.Файзиев.

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Buxoro viloyati Qo'riqlash boshqarmasi va Olot tuman ABMK boshqarmasi o'rtasida 2022 yil "12" yanvarda tuzilgan JSh/ 55 -sonli shartnomaga ilova.

"TASDIQLAYMAN"

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi
Buxoro viloyati Qo'riqlash boshqarmasi boshlig'i

Sh.A.Jumayev

2022 yil "12" .

"TASDIQLAYMAN"

Olot tuman ABMK boshqarmasi
boshlig'i

Sh.B.Durmatov

2022 yil "13" .

Olot tuman ABMK boshqarmasi ga qarashli "Abu Buxoro-1" suv nasos stansiyasini qo'riqlash

HISOB-SMETASI

№	Ob'yekt nomi	Qo'riqlash turi	Post soni	Qo'riqlash vaqti (soat)				Qo'riqlash uchun to'lanadign pul miqdori (so'm)	
				Ish kunlari	Dam olish old kunlari	Dam olish kunlari	Bir oyda	Bir soatda	Bir oyda
1	"Abu Buxoro-1" suv nasos stansiyasining darvozasi	Saf bo'linmasi	1	24	24	24	730	88 469	64 582 370,00
2	"Abu Buxoro-1" suv nasos stansiyasining ma'muriy bino va mashina zali	Saf bo'linmasi	1	12	12	24	417	88 469	36 891 573,00
3	"Abu Buxoro-1" suv nasos stansiyasi suv quvurlarining ustki qismi	Saf bo'linmasi	1	24	24	24	730	88 469	64 582 370,00
4	"Abu Buxoro-1" suv nasos stansiyasi suv quyish joyi va qo'shimcha darvoza	Saf bo'linmasi	1	24	24	24	730	88 469	64 582 370,00
									230 638 683,00

Jami bir oyda: 230 638 683,00 ikki yuz o'ttiz million olti yuz o'ttiz sakkiz ming olti yuz sakson uch so'm 00 tiyin.

Viloyat QB bosh hisobchisi: O.G'.Yulimov

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Buxoro viloyati Qo'riqlash boshqarmasi va Olot tuman ABMK boshqarmasi o'rtasida 2022 yil " 13 " yanvarda tuzilgan JSh/ 55-sonli shartnomaga ilova.

"TASDIQLAYMAN"
O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi
Buxoro viloyati Qo'riqlash boshqarmasi boshlig'i

Sh.A.Jumayev

2022 yil " 13 " 01

"TASDIQLAYMAN"
Olot tuman ABMK boshqarmasi
boshlig'i

Sh.B.Durmatov

2022 yil " 13 " 01

Olot tuman ABMK boshqarmasi ga qarashli "Abu Buxoro-2" suv nasos stansiyasini qo'riqlash

HISOB - SMETASI

№	Ob'yekt nomi	Qo'riqlash turi	Post soni	Qo'riqlash vaqti (soat)				Qo'riqlash uchun to'lanadign pul miqdori (so'm)	
				Ish kunlari	Dam olish old kunlari	Dam olish kunlari	Bir oyda	Bir soatda	Bir oyda
1	"Abu Buxoro-2" suv nasos stansiyasining darvozasi	Saf bo'linmasi	1	24	24	24	730	88 469	64 582 370,00
2	"Abu Buxoro-2" suv nasos stansiyasining ma'muriy bino va mashina zali	Saf bo'linmasi	1	12	12	24	417	88 469	36 891 573,00
3	"Abu Buxoro-2" suv nasos stansiyasi suv quvurlarining ustki qismi	Saf bo'linmasi	1	24	24	24	730	88 469	64 582 370,00
4	"Abu Buxoro-2" suv nasos stansiyasi suv quyish joyi va qo'shimcha darvoza	Saf bo'linmasi	1	24	24	24	730	88 469	64 582 370,00
									230 638 683,00

Jami bir oyda: 230 638 683,00 ikki yuz o'ttiz million olti yuz o'ttiz sakkiz ming olti yuz sakson uch so'm 00 tiyin.

Viloyat QB bosh hisobchisi: O.G'.Yulimov

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Buxoro viloyati Qo'riqlash boshqarmasi va Olot tuman ABMK boshqarmasi o'rtasida 2022 yil "12" yanvarda tuzilgan JSh/ 55-sonli shartnomaga ilova.

"TASDIQLAYMAN"
O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi
Buxoro viloyati Qo'riqlash boshqarmasi boshlig'i

Sh.A.Jumayev

2022 yil " " " "

"TASDIQLAYMAN"
Olot tuman ABMK boshqarmasi
boshlig'i

Sh.B.Durmatov

2022 yil "13" "01"

Olot tuman ABMK boshqarmasi ga qarashli xazinaxonani TQM orqali qo'riqlash

HISOB-SMETASI

№	Ob'yekt nomi	Qo'riqlash turi	Kalitlar soni	Qo'riqlash vaqti (soat)				Qo'riqlash uchun to'lanadigan pul miqdori (so'm)	
				Ish kunlari	Dam olish old kunlari	Dam olish kunlari	Bir oyda	Bir soatda	Bir oyda
1	Olot tuman ABMK boshqarmasi xazinaxonasi	TQM	1	16	16	24	521	6 256	3 259 376,00
2		Tashvish tugma	1	8	8	0	209	3 128	653 752,00
3	QYoST vositalariga texnik xizmat ko'rsatish uchun						8 x 29 547		236 376,00
									4 149 504,00

Jami bir oyda: 4 149 504,00 to'rt million bir yuz qirq to'qqiz ming besh yuz to'rt so'm 00 tiyin.

Viloyat QB bosh hisobchisi: O.G'.Yulimov